

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiiy fanlar fakulteti

“Geografiya bakalavriyat” ta’lim yunalishi

IV – kurs talabasi

**Toshpo’latova Nigoraning
bitiruv malakaviy ishi**

**Mavzu: “Jahon xo’jaligi va ITI” mavzusi bo’yicha amaliy mashg’ulot
ishlanmasini tuzish tajribasidan(IX sinf misolida)**

BUXORO-2015

MUNDARIJA

Kirish.....

I. Bob. Geografiya fanlarini o'qitishda dars ishlanmalarining o'rni va ahamiyati

1.1. Darsga tayyorlanish – ta'lim sifati va mazmunini oshirishning muhim yo'li.....

1.2. Dars ishlanmalari texnologik xaritaning tarkibi va uni tuzish metodikasi.....

II. Bob. “Jahon xo'jaligi va ITI” mavzusi bo'yicha 2 soatlik amaliy dars ishlanmasi va uning texnologik xaritasi.....

II.1. “Jahon xo'jaligi va ITI” mavzusining geografik tavsifi.....

II.2. “Jahon xo'jaligi va ITI” mavzusini o'rganish bo'yicha 2 soatlik amaliy dars ishlanmasi va uning texnologik xaritasi.....

XULOSA VA

TAKLIFLAR.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. XXI asrga kelib, dunyodagi barcha mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida globallashuv va integrastiya jarayonlari tobora chuqurlashmoqda. Har ikkala jarayon keng – umumbashariy qamrovli, o'zaro bog'liq jarayon. Mazkur jarayonlarning har qanday ta'sirini siyosiy, balki geografik chegaralar ham to'siq bo'lolmasligi oydinlashdi. Faqat globallashuv va integrastiya jarayonlarining mohiyatini anglash va ularni chuqur o'rganish orqali ko'zlangan maqsadga erishilishi sir emas.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari ham jahondagi globallashuv va integrastiya bo'hroni ta'sirida yashamoqda, ijod qilmoqda. Albatta, bu yoshlarimizni har qanday global va integrastiya muammolarini tushunishlariga, kelajakda uning echimlarini topishlariga, turli global bo'hronlar oldida esankiramasliklariga bog'liq. Globallashuv va integrastiya jarayonlari xususiyatlarini o'rganishda Jahonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasining katta ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarining IX sinflarida Jahonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi fani uchun 68 soat ajratilgan. Mazkur fanni o'quvchilar o'zlashtirishlari uchun nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Maktablarda dars jarayonlarining mazmunida yangi mavzuni bayon qilish, amaliy mashg'ulot bajarish, mustaqil ishlarni tashkil qilish, baholash hatto laboratoriya bo'yicha topshiriqlar berish va ularni o'quvchilar bilan bajarish imkoniyati mavjud. Ta'lim sifati va mazmunini oshirishning muhim shartlaridan biri – o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishidir. E'tiborsizlik bilan rejalashtirilib, puxta tayyorlanmagan, o'quvchilar imkoniyatlari bilan uyg'unlashmagan dars kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun har bir pedagog va bo'lg'usi pedagoglar darslarga puxta hozirlik ko'rishni birinchi galda dars ishlanmasi va uning texnologik xaritasiga qaratishi lozim..

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishning asosiy **maqsadi** ishda dars ishlanmalarining tarkibi va uni tuzish metodikasini o'rganish, "Jahon xo'jaligi va ITI" mavzusi bo'yicha amaliy

mashg'ulot ishlanmasini tuzish tajribasidan(IX sinf misolida) 2 soatlik dars ishlanmasi va uning texnologik xaritasini tuzishdir.

Ushbu maqsad yo'lida quyidagi **vazifalarni** bajarish ko'zda tutilgan:

- Geografiya fanlarini o'qitishda dars ishlanmalarining o'рни va ahamiyatini o'rganish;
- Umumta'lim maktablaridagi Jahonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi fanidan DTS, o'quv dasturlari, darsliklarining mazmun-mohiyatini o'rganish;
- Umumta'lim maktablaridagi Jahonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar tashkil etish to'g'risidagi manbalarni o'rganish;
- “Jahon xo'jaligi va ITI” mavzusi bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish;
- “Jahon xo'jaligi va ITI” mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning 2 soatlik dars ishlanmasi va uning texnologik xaritasini tuzish;
- Mazkur mavzu bo'yicha universitet talabalarining pedagogik amaliyoti davrida men o'quvchilarga 1 soat dars o'tishni maqsad qildim.

Men pedagogik amaliyoti davrida ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarga 1 soat ochiq dars o'tdim. Ochiq dars tahlilida g.f.n. dost. X.Toshov, 39-maktabning oliy toifali geografiya o'qituvchisi R.Zabieva va 4-kurs talabalari ishtirok etishdi. Ushbu tadbir uchun maktab rahbariyati tomonidan “TASHAKKURNOMA va FAXRIY YoRLIQ” bilan taqdirlandim. Shuningdek, kursdoshlarim (**Ahmadova M., Ergashova L., Mirakova M. Transchegaraviy daryolardan foydalanishning geografik jihatlari. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro. 20-21 aprel 2015. 382-383 b.)** bilan hamkorlikda maqolam chop etildi.

Mazkur mavzu yuzasidan ma'lumotlar to'plash va ularni mazmunan tahlil qilishda yaqindan yordam bergan **pedagogika fanlari doktori prof.**

Sh.Olimovga, ilmiy rahbarimga, kafedraning dostenti A.Mavlonovga, katta o'qituvchilar A.Qodirov, A.Ne'matov, I.Mirzaeva, M.Ergasheva va o'qituvchilardan Z.Anvarova, G.Halimova hamda D.Qo'chqorovalarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.


I. Bob. Geografiya fanlarini o'qitishda dars ishlanmalarining o'rni va ahamiyati

1.1. Darsga tayyorlanish – ta'lim sifati va mazmunini oshirishning muhim yo'li

Ta'lim sifati va mazmunini oshirishning muhim shartlaridan biri – o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishidir. E'tiborsizlik bilan rejalashtirilib, puxta tayyorlanmagan, o'quvchilar imkoniyatlari bilan uyg'unlashmagan dars kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun har bir pedagog va bo'lg'usi pedagoglar darslarga puxta hozirlik ko'rishni birinchi galdagi vazifa sifatida yodda saqlashi lozim.

Darsga tayyorlanish – bir butun tadbirlar majmuasini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bunda eng muhim, pirovard natijani ta'minlaydigan o'quv-tarbiya jarayonini tanlashdir. Tayyorgarlik uch yo'nalishda olib boriladi:


- O'qituvchining pedagogik tayyorgarligi;
- O'qituvchining o'z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi;
- Har bir darsga kundalik tayyorgarlik.



1 rasm. O'qituvchining darsga tayyorgarlik yo'nalishlari (prof. Sh.Olimov bo'yicha)

O'qituvchining o'z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi o'quv yili boshlanishi oldidan va yillar davomida amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchining quyidagi vazifalarga e'tibor qilishlari belgilangan:

1. Maktab o'quv dasturini puxta o'rganish;
2. Tushuntirish xati bilan chuqur tanishish;
3. Mavzular bo'yicha qo'yilgan DTS talablarini sinchiklab o'rganish;
4. O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka me'yorlarini aniqlash;
5. Fanga oid ilmiy – metodik va ilmiy – ommabop adabiyotlarning mazmuni bilan tanishish;
6. Yangi nashr qilingan o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali materiallar, o'quv laboratoriya jihozlarini o'rganish;
7. Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini tahlil qilish va o'z ustida ishlash orqali bilimini kengaytirish;
8. O'z fani sohasida eng yangi ma'lumotlarni to'plash, muammoli masala va topshiriqlar test materiallarini jamlash.



2-rasm. O'qituvchining o'z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi
(Pedagogika. T. 2011)

O'qituvchining o'z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi uning fan bo'yicha tuzgan taqvim – mavzu rejasida (kalendar – tematik plan) o'z aksini topadi. Ushbu reja fan o'qituvchisi tomonidan tuzilib, metod - birlashma yig'ilishida

muhojama etiladi, maqullangandan so'ng ma'muriyat tomondan tasdiqlanadi (1-jadval).

1 – jadval. O'qituvchining fan bo'yicha tuzgan taqvim – mavzu rejasi (namuna. N.Toshpo'latova tuzdi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI
BUXORO SHAHAR XALQ TA'LIMI MASSASALARI
FAOLIYATINI METODIK TA'MINLASH VA TASHKIL ETISH
BO'LIMI

“GEOGRAFIYA” FANI O'QITUVCHISI

Toshpo'latova Nigoraning

2014 – 2015 O'QUV YILI UCHUN

TAQVIM-MAVZU REJASI

TAQVIM – MAVZU REJASI XTVNING 2014 YILDA TASDIQLANGAN
O'QUV DASTURI ASOSIDA TUZILDI.

D ar s №	Mavzul ar	Dar s soat i	O'tkazish muddat i	Dars o'tiladigan sana	Darsda foydalaniladigan ko'rsatmali vositalar	Mavzu bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan BKMLar	O'quvchilar ning mustaqil ishlari uchun topshiriqlar(darsda, uyda)
9.	“Jahon xo'jaligi va ITI”	2	20 dekabr, 2014 yil Sinf: IX ^b	20 dekabr, 2014 yil Sinf: IX ^b	“Jahon xo'jaligi va ITI” xaritalari, jadvallar, chizmalar, kompyuter.	Tayanch atamalar	Jadvallar, testlar

O'qituvchining har bir darsga tayyorgarligi muhim pedagogik jarayonlar orasida eng mas'uliyatlisidir. Darsga tayyorlanish algoritmi (qoidalar majmui) barcha omillar, holatlarni hisobga olish va sifatli ta'limni kafolatlaydigan izchil tadbir bo'lishi zarur. Shuning uchun har bir darsga tayyorlanishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

- darsda o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun, avvalo, uning idroki xotirasini kuchaytirish asosida o'quv materialning mustahkam yodda saqlanishini ta'minlash;
- dars maqsadiga erishishi uchun o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, bunda o'quvchilarning bilim saviyasini hisobga olish va darsni jihozlashga jiddiy e'tibor berish;
- o'quv materiallarining o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ta'limning metod va usullaridan o'rinli foydalanish.

Dars o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklar ekan, unga atroflicha tayyorlanish tajribali pedagog uchun ham, yosh pedagog uchun ham birdek zarur. Bu vazifani sifatli bajarish uchun o'quvchilar shaxsini o'rganish oddiygina tadbir emas, balki ta'lim – tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishishning eng muhim yo'lidir. Shuning uchun sinf jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim.

Sinf jamoasining o'ziga xos xususiyatlari

- sinfning bilim va o'zlashtirish saviyasi;
- o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabati;
- sinfning ishlash tezligi;
- o'quvchilarda bilim ko'nikma va malaka me'yorlarining shakllanganligi;
- har xil turdagi o'quv jarayoniga munosabati;
- o'quvchilarning intizomi.

Ikkinchi navbatda esa har bir o'quvchining individual xususiyatlariga diqqatni qaratish zarur.

Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini o'rganish va uni boshqarish

- ruhiy holat darajasini aniqlab olish;
- o'zaro fikr almashinuvini yo'lga qo'yish rejasini ishlab chiqish;
- yangi o'quv materialining o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini boshqarish;

- noxush kayfiyatni tarqatish yo'llarini bilish;
- o'zining bilim va qobiliyatiga ishonish;
- tasodifiy holatlarga munosib javob qaytarish mahoratini oshirish;
- har xil ta'lim vositalaridan foydalanishni bilish.

O'qituvchining kundalik darsga tayyorgarligini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish zarur:

birinchidan, taqvim – mavzu reja asosida dars mavzusining maqsad va vazifalari, dars shakli va turlari, tarbiyaviy ahamiyatga molik jihatlarni aniqlash;

ikkichidan, dars rejasini bo'lim yoki mavzu bo'yicha tizimli ishlab chiqish;

uchinchidan, dastur, metodik qo'llanmalar, darslik va qo'shimcha adabiyotlar asosida dars maqsadini belgilab olish;

to'rtinchidan, o'quv materialining mazmunini optimallashtirish;

beshinchidan, o'quvchi darsda bilib olishi va eslab qolishi zarur bo'lgan asosiy mazmunni ajratib olish;

oltinchidan, o'quv vazifalarini aniq ifoda qilish;

ettinchidan, dars strukturasi turi, metodlari va o'qitish usullarini qayd qilib qo'yish;

sakkizinchidan, fanlararo bog'lanish va undan foydalanish yo'llarini aniqlab olish;

to'qqizinchidan, o'qituvchi va o'quvchilarning darsdagi faoliyatlarini rejalashtirish;

o'ninchidan, darsning didaktik vositalarini (rasmlar, tarqatma materiallar, jadvallar, chizmalar va b.) tanlash;

o'n birinchidan, darsda foydalaniladigan jihozlarni tekshirish;

o'n ikkinchidan, o'quvchilarning darsdagi mustaqil faoliyatlari hajmini belgilab olish;

o'n uchinchidan, darsda olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashning usul va shakllarini belgilab olish;

- o'n to'rtinchidan, uy vazifasi hajmini muvofiqlashtirish;
- o'n beshinchidan, darsni yakunlash shakllarini ishlab chiqish;
- o'n oltinchidan, qayd etilgan talablar asosida dars ishlanmasini yozish.

1.2. Dars ishlanmalari texnologik xaritaning tarkibi va uni tuzish metodikasi

Pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri dars ishlanmalarini tuzishdir. Dars ishlanmalari qanday tuziladi ?

Uni tuzishda pedagog nimalarga e'tibor qaratishi lozim? Albatta, bu savollar barcha fan fidoyilarini doimo izlanishga undaydi. Demak, o'qituvchi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchilarga beriladigan ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish hamda yuqori bosqichga ko'tarishdan iborat. Shu sabab, o'qituvchining aniq sharoit va imkoniyatlarga mos o'quv jarayonini tanlab olishi darsda tavakkalchilikka yo'l qo'ymasligi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni boshqarishi lozim. Bunda, ayniqsa, dars ishlanmalarini batavsil tuzish, aniq vaziyatni e'tiborga olib, darsni turli xil shaklda o'tkazishga e'tibor qaratish muhim.

Dars ishlanmalarini tuzishda quyidagilar e'tiborda turishi lozim:

I. Dars mavzusi

Bu taqvim-mavzu reja asosida rejalashtiriladi

1. Dars maqsadi

Ta'limiy – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, shakllantirishni ko'zda tutilgan holda belgilanadi;

Rivojlantiruvchi – o'quvchilar aqliy faoliyatning qanday shakl va mantiqiy jarayonlarini o'zlashtiradilar, uning qanday rivojlantiruvchi natija berishini ifodalaydi.

Tarbiyaviy – shaxs sifatlarining qanday shakllantirilishi ko'rsatiladi.

2. Dars turi – taqvim-mavzu reja asosida dars turi ko'rsatiladi.

3. O'qitish metodlari – metodlar, usullar va pedagogik texnologiyalar majmui.

4. Dars jihozi – O'TV, ko'rgazmali qurollar, ma'lumotlar manbai, adabiyotlar, o'qitishning didaktik vositalari.

II. Muhimligi

Yangi materialni o'zlashtirish uchun yordam beradigan tayanch bilimlarning muhimlarini ajratish, o'quvchilarning mustaqil ishlarini rejalashtirish, o'qitishda motivastiyani shakllantirish yo'llari, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, mavzuga doir tarixiy ma'lumotlar berish, uning amaliy ahamiyati, o'ziga xos savollarning ko'rinishi, masalalarning yangicha ifoda qilinishi, muammoli vaziyat yaratish, ish jarayonida nazorat shaklini belgilash, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat, teskari aloqani o'rnatish shakllari uchun vaqt ko'rsatiladi.

III. Yangicha tushunchalar va harakat usullarni shakllantirish

O'rganilishi lozim bo'lgan yangi tushunchalar va ularni o'zlashtirish usullari, bilim, ko'nikma va malaka me'yorlarini shakllantirish hamda mustahkamlashni ko'rsatish; o'zlashtirish bosqichida vazifalarni aniqlash, faoliyat usullarini shakllantirish, mustaqil ish turi, fanlararo bog'lanishni tashkil qilish usullarini belgilash, individual topshiriqlarni bajarish uchun o'quvchilarga didaktik materiallarni (kartochkalar, muammoli va ma'lumotli savollar) taxt qilib qo'yish.

IV. Qo'llash - bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Bunda egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar aniq ko'rsatiladi. Masalan, savolni to'g'ri qo'yish malakasi, sababini aniqlash, tasniflash, taqqoslash, teskari aloqa o'rnatish usullari belgilanadi, so'ralishi lozim bo'lgan o'quvchilarning ismi, familiyasi ko'rsatiladi va boshqalar.

V. Uyga vazifa – asosiy vazifa ko'rsatiladi, takrorlash uchun savollar, ijodiy topshiriqlar, uy vazifasining hajmi, sinfda bajariladigan ishning asosiy qismidan oshmasligi lozim.

Dars ishlanma rejasining tuzilishi

Sana -----
Sinf -----
Mavzu-----
Maqsad-----
Ta'limiy-----
Rivojlantiruvchi-----
Tarbiyaviy-----
Turi-----
Metodlari-----
Jihozlash-----

Dars boqichlaridagi ketma-ketlik

Tashkiliy	Yangi bilimni o'zlashtirish
Uy vazifasini tekshirish	Yangi bilimni mustahkamlash
Har tomonlama bilimlarni tekshirish	Uy vazifasi bo'yicha axborot, yo'riqnoma
Yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash	

Dars qismining mazmuni

Dars bosqichi	Vaqt	Qo'llaniladigan metod	O'quvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati

Dars mazmuni va samaradorligi nafaqat uning tuzilishiga, balki o'qituvchining og'zaki va yozma bilimlarini ifodalashi, nutq madaniyati, darsdagi materiallarni yaxshi o'rganib chiqishi va o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan bilimlarni yodda saqlashi, masalalar shartlari va ularning javoblarini mustahkam bilishiga ham bog'liq. Shuni unitmaslik lozimki, dars – o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas, o'quv amaliyoti va pedagogik

tafakkur doim uni takomillashtirish yo'llarini izlashni talab qiladi. Shunday ekan, yuqoridagi tavsiyalarga ijodiy yondashgan holda ulardan samarali foydalanishimiz, uni yanada boyitishimiz mumkin.

II. Bob. “Jahon xo’jaligi va ITI” mavzusi bo’yicha 2 soatlik amaliy dars ishlanmasi va uning texnologik xaritasi

II.1. “Jahon xo’jaligi va ITI” mavzusining geografik tavsifi

Ilmiy-texnik taraqqiyot – fan-texnika, ishlab chiqarish va iste’mol sohasi taraqqiyotining o’zaro bog’langan jarayoni.

Ilmiy-texnik taraqqiyot va Ilmiy-texnik inqilob atamaları sinonim yoki o’zaro farqlanuvchi tushuncha ekanligi ham munozarali. Aksariyat olimlar (mas, V.P.Maksakovskiy) bir tomondan bular o’xshash bo’lsada, aslida bir-biridan farq qiladigan tushuncha ekanligini qayd etadilar. Xulosa qilib aytganda, Ilmiy-texnik taraqqiyot nisbatan keng tushuncha, Ilmiy-texnik inqilob esa tor ma’noda ishlatiladi. Bu ko’pincha vaqt doirasiga nisbatan olingan. Ilmiy-texnik taraqqiyotning davriyligi haqida fanda yagona fikr yo’q. Ayrim olimlar taraqqiyot abadiy va u insoniyat stivilizastiyasining(tosh quroldan to EHM gacha) barcha tarixini qamrab oladi deb, hisoblaydilar. Boshqalari esa, XVI – XVII asrlardan boshlanganligini qayd etadilar. Shuni alohida e’tirof etish lozimki, Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlariga insoniyat stivilizastiyasi tarixining so’nggi yillarida erishilgan. Bu erda amerikalik olim Olvin Tofflarning fikrlari o’rinli, uning hisob-kitoblariga ko’ra “aqlli Odam”ning 50 ming yillik tarixi davomida 800 avlodi almashingan, shuning 650 tasining hayoti g’orlarda o’tgan, tabiatga qaram bo’lib yashagan, hozirgi moddiy boyliklar qolgan avlodlar tomonidan yaratilgan. Ilmiy-texnik taraqqiyot ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat sohasi barcha tomonlarining hamma sohalarda fan va texnika yutuqlaridan foydalanish asosida to’xtovsiz takomillashib borishidan iborat bo’lib, ob’ektiv iqtisodiy qonunlar ta’sirida vujudga keladi.

Ilmiy-texnik inqilob – fan va texnika taraqqiyotidagi jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini tubdan qayta quradigan sifat o’zgarishi.

Ilmiy-texnik inqilob ishlab chiqarish metodlarini tubdan qayta qurish imkoniyatlarini beradi, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradi, butun ishlab

chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishning misli ko`rilmagan imkoniyatlarini ochadi. Ilmiy-texnik taraqqiyotning alohida davrlarida ijtimoiy ishlab chiqarishda miqdordan sifatga o`tilib, chuqur o`zgarishlar sodir bo`lgan, bu davrlarni Ilmiy-texnik inqilob deb atay boshladilar.

Birinchi Ilmiy-texnik inqilob sifatida **neolit inqilobi** ajratiladi. Shunday vaqt doirasi bo`yicha inqiloblardan biri sifatida XVIII – XIX asrlarda sodir bo`lgan sanoat inqilobini (sanoat to`ntarishi deb ham yuritiladi) ajratadilar.

Neolit inqilobi – insonlarni oziq-ovqat uchun zarur bo`lgan biologik resurslarni ko`paytirish maqsadida termachilikdan ishlab chiqarish xo`jalik yuritishga o`tishi yoki yangi xo`jalik yuritish tipining vujudga kelishi. Bu atama ingliz arxeologi G. Chayld tomonidan ilmiy adabiyotlarga kiritilgan. Insoniyat tarixida ko`plab global ahamiyatga ega voqealar sodir bo`lganki, ular nafat kishilar hayotini, balki atrof – muhitga katta ta'sir o`tkazgan. Jumladan, bunga olovni kashf etilishi, xo`jalik yuritishning yangi tipiga o`tilishi misol bo`ladi. G. Chayld N. i. insonlarga oziq- ovqatning doimiy, boy va ishonchli manbalarini ochdi, ular kishilarning nazoratiga o`tdi, deb ta'kidagan edi.

Sanoat inqilobi – qo`l mehnatidan mashinali ishlab chiqarishga o`tilish jarayoni. Bug` mashinasi (paravoz, paroxod va b.) uning ramzidir. S. i. hududiy jihatdan faqat Evropa va Shimoliy Amerikani qamrab oldi. Bu inqilob davrida “fan - texnika” hali yagona tizim hosil etmagan edi. Uning barcha etakchilari Jeyms Uatt, Jorj Stefenson, Robert Fulton va Eli Uitni(paxta tozalash mashinasining ixtirochisi) mexaniklar bo`lgan. Angliyada 1785 yil bug` mashinasi birinchi marta to`qimachilik ishlab chiqarilishiga berildi, 1801 yilda esa birinchi yirik 200 ta stanokdan iborat mexanizastiyalashgan to`qimachilik fabrikasi ishga tushirildi. 1810 yilga kelib Angliyada 5 mingga yaqin bug` mashinalari ishlay boshlagan. U davrlarda Angliya qonunlari mashina chizmasi va texnik tavsiflarini mamlakatdan chetga olib chiqilishini taqiqlagan edi. AQShga muhojir bo`lib borgan ingliz ishchisi A. S. Sleyter ingliz qonunlarini chetlab, to`quv mashinasi chizmalarini xotirasida olib o`tadi. Oqibatda, 1790 yildayoq AQShda to`qimachilik fabrikasi ish boshlagan, A. S.

Sleyter esa **“amerika sanoatining otasi”** nomi bilan mashhur bo`ldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida tabiiy fanlar sohasidagi inqiloblar fanni ishlab chiqarish bilan uzviy mustahkam bog`ladi. Bunga elektr lampochkasi, elektr motorning ixtiro qilinishi, fotografiya, kinomatografiya, ovoz yozish, kimyo sohasidagi yutuqlarni(kimyoviy bo`yoq va o`g`itlar) misol qilish mumkin. Shuning uchun XIX asr oxiri XX asr o`rtalarigacha bo`lgan davrni ko`pgina iqtisodchilar, iqtisodiy- geograflar mashina-texnika inqilobi davri deb atash lozim deb hisoblaydilar. N. V. Alisov uning davomiyligi (70 – 80 yil) birinchi sanoat inqilobidan uch marta qisqaligini, rivojlanish sur`atini esa juda yuqoriligini ta`kidlagan. Mashina-texnika inqilobi dastlab nisbatan kamroq mamlakatlarda yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni tashkil topishiga va keyinchalik sanoatlashuvga asos bo`ldi. U mehnat unumdorligini oshirdi, geografik jihatdan ko`plab yirik sanoat rayonlari va tugunlarini shakllanishiga olib keldi.

2 - jadval

Dunyo sanoati rivojlanishning davriyligi

Davrlar Ko`rsatgichlar	XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning ikkinchi yarmigacha	XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning o`rtalarigacha	XX asrning o`rtalaridan hozirgacha
Sanoat ishlab chiqarishining nomlanishi	Eski	Yangi	Eng yangi
Ilmiy-texnik taraqqiyotning tipi	Sanoat inqilobi(to`ntarishi)	Texnik inqilob	Ilmiy – texnik inqilob
Energiya turi	Bug`	Elektr	Elektr

Asosiy mashina turlari(industrial ramzlar)	Bug` mashinasi	Elektr dvigateli va ichki yonuv dvigateli	EHM
Birinchi ishlab chiqarish rivojlanishi geografiyasi	Angliya	AQSh, Germaniya	AQSh, sobiq Ittifoq, G`arbiy Evropa, Yaponiya

Albatta, zamonaviy Ilmiy-texnik inqilob asosiy diqqatimizni jalb etishi tabiiy. Uning boshlanishini 1950 yillarning o`rtalaridan (sobiq Ittifoqda birinchi marta tajriba sifatida Obninskda ishga tushirilgan AES va birinchi Er yo`ldoshining uchirilishi sanasi bilan) hisoblaydilar. Akademik V. P. Maksakovskiy zamonaviy Ilmiy-texnik inqilobni boshlanish davrini ayrim olimlar tomonidan Ikkinchi jahon urushida, harbiy sohada Xirosima va Nagasaki shaharlarida (1945 yil, 6 va 9 avgust) atom bombasini portlashi bilan bog`liq sanadan hisoblashlarini asossiz deb hisoblaydi.

Zamonaviy Ilmiy-texnik inqilobning juda ko`plab tavsiflari mavjud, ammo ularning aksariyati mazmun jihatdan bir ma`noni anglatadi. Jumladan, Ilmiy-texnik inqilob insoniyat ishlab chiqarish kuchlarida tub sifatiy burilish bo`lib, u fanni jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishiga asoslanadi deb xulosalangan. Zamonaviy Ilmiy-texnik inqilobning ko`lami, muddati kabi sohalarida yakdillik mavjud.

**Ilmiy-texnik inqilob mehnat jarayonining mazmuni, mohiyati va sharoitini, ijtimoiy va geografik mehnat taqsimotida ishlab chiqarish kuchlarining tarkibini, ishlab chiqarish tarmoqlari va mehnat resurslarining kasbiy tarkibini tubdan o`zgartiradi.** Shuningdek, mehnat unumdorligini oshiradi, jamiyat hayotining barcha sohalarini – mehnat jarayoni, turmush sharoiti, madaniyati, boshqaruvi, hatto kishilar ruhiyatini o`zgartiradi. EHM, kosmik kema, AES, televizor va internet zamonaviy Ilmiy-texnik inqilobning ramzlaridir.

Zamonaviy Ilmiy-texnik inqilob jarayonining muddati bo'yicha akademik N. N. Moiseev fikr bildirib, u doimiy va uzluksiz (permanent inqilob) deb atagan. Yu. V. Yakovest esa XX asrning ikkinchi yarmidan so'ng ikkita Ilmiy-texnik inqilob – birinchi va ikkinchi inqilobni ajratadi.

Birinchi Ilmiy-texnik inqilob rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 50 – 60 yillarida ro'y bergan bo'lib, u uchta bosh ilmiy-texnik yo'nalishda amalga oshgan:

- 1) atom energiyasini o'zlashtirilishi;
- 2) kvant elektronikasini rivojlanishi va lazer texnikasining yaratilishi;
- 3) kibernetika va hisoblash texnikasi, EHM lar yangi avlodining yaratilishi.

Ikkinchi Ilmiy-texnik inqilob, olimning fikricha XX asrning oxirgi choragida ro'y bergan bo'lib, uning yadrosini quyidagi uchlik tashkil etgan:

- 1) mikroelektronika;
- 2) biotexnologiya;
- 3) informatika.

Ayrim olimlar zamonaviy Ilmiy-texnik inqilobni uch, to'rt, hatto besh bosqichlarini yoki inqiloblarni ajratadilar.

Fan – dunyo haqidagi bilimlar sistemasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli – olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda Fanning ijtimoiy roli oshdi. U madaniyatning muhim tarmog'i va texnikaning nazariy asosiga aylandi. Fan fan-texnika inqilobining muhim tarkibiy qismidir. Fanga ikki nuqtai-nazardan qarash mumkin: 1) bilimlar sistemasi sifatida; 2) inson faoliyatida mehnat turi sifatida. Fanni bilimlar sistemasi sifatida maxsus fanshunoslik tarmog'i o'rganadi. Fanshunoslikda har bir fanning etakchi 3 ta funkstiyasi aytiladi. Bular Fanning nazariy, amaliy va ma'naviy-ma'rifiy funkstiyalaridir.

Fanga inson faoliyatining turi sifatida qaralganda quyidagi ko'rsatgichlar hisobga olinadi: 1) Fanga bandlik yoki band bo'lganlar soniga ko'ra; 2) Fanga sarflangan mablag' ko'lamiga ko'ra. YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha taxminan 8,2 mln kishi ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilingan bo'lib,

ularning 4,7 mln Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo mamlakatlarda, 1,9 mln iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda, 1,6 mln iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlarda yashaydi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo mamlakatlar orasida AQSh tengsiz. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bilan qariyb 1,5 mln amerikalik band. 1901 – 1997 yillar orasida juda ko'p AQSh fuqarolarining Nobel mukofotiga sazavor bo'lganligi fikrimizni tasdiqlab turibdi. Shundan, 42 kishiga tibbiyot va fiziologiya sohasida, 40 ta fizika bo'yicha, 34 ta kimyo bo'yicha, 22 ta iqtisodiyotda, 12ta adabiyot sohasidagi yutuqlarga ushbu nufuzli mukofot berilgan.

Ilmiy-tadqiqot va konstruktiv –tajriba ishlanmalarida bandlik bo'yicha Xitoy (1 mln) yaqinda ikkinchi o'ringa ko'tarildi. Keyingi o'rinlarni Rossiya va Yaponiya (har biri 850 mingdan), Germaniya (500 ming) va Fransiya (350 ming) egallaydi. Yaponiyada har 1000 kishiga 6,4, AQSh – 3,8, G'arbiy Evropada esa – 2,3 ta olim va injenerlar to'g'ri kelmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu raqam 0,1 – 0,3 ga teng xolos.

Dunyo fani rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadigan ilmiy ishlanmalarni chop ettirish bo'yicha Shimoliy Amerika (38%, unda AQSh ulushi 36%) birinchi o'rinda turadi, keyingi o'rinlarni G'arbiy Evropa (36%), xorijiy Osiyo (14%), Markaziy-Sharqiy Evropa va MDH (7%), Avstraliya va Okeaniya, Janubiy Amerika, Afrika (birgalikda 5%) band etmoqda. Bu sohada alohida mamlakatlar orasida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya karvonboshilik qiladi. Fanga yoki ilmiy adabiyotlarda Ilmiy-tadqiqot va konstruktiv –tajriba ishlanmalariga qilinadigan xarajat deb ko'rsatiladi. Xarajatlar mutloq (mln doll.) va nisbiy (YaIM ga %) ko'rsatgichlarda ifodalanadi. Mutloq xarajatlar hajmi qariyb 500 mlrd doll. dan oshdi, uning 95% i rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa, AQSh, Yaponiya mutloq xarajatlar ko'rsatgichi bo'yicha oldingi o'rinda. Nisbiy xarajatlar sohasida esa Yaponiya va Finlyandiya (3% dan ortiq), Shvestiya (4%), Isroil (5%), AQSh va Germaniya (2,8%) alohida ajralib turadi.

Texnika (techne – mahorat, san'at) – moddiy boylik olish, hamda odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofdagi tabiatga ta'sir qilishiga imkon beradigan vositalar va ko'nikmalar majmui. Texnika va texnologiya maqsadi va vazifasiga ko'ra tabaqalanadi. Maqsadi(funkstiyasi)ga ko'ra:


1) Texnika va texnologiyalarning mehnatni tejash funkstiyasi. Buning asosiy maqsadi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mehnat unumdorligini ta'minlashdir. AQSh, Kanada, Shveystariya, Norvegiya, Belgiya dunyoda mehnat unumdorligi bo'yicha etakchilik qiladi, Kongo, Burkino-Faso, Efiopiya, Mali va Somali esa ulardan 40 – 50 marta orqada qolmoqda;

2) Texnika va texnologiyalarning resurs(material) tejash funkstiyasi. Unga ishlab chiqarish jarayonida yoqilg'i, energiya va xom ashyoni iqtisod qilish orqali erishiladi. Ilmiy-texnik inqilob davrida ikkilamchi xom ashyolardan foydalanish dunyo xo'jaligining rivojlangan sohasiga aylanib ulgurdi. Masalan, dunyoda qog'ozning 40% i ikkilamchi xom ashyo (makulatura)dan tayyorlanmoqda. Bu raqam Evropada – 50%, jumladan, Daniyada – 80%, GFRda – 70%, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Niderlandiya va Finlyandiyada – 60-65%, Yaponiyada – 50%, Italiya, Franstiya, Kanada, Shveystariyada 45 – 50% ni tashkil etadi;

3) Texnika va texnologiyalarning tabiatni muhofaza qilish funkstiyasi. Bugungi kunda tabiatni muhofaza qiluvchi mahsulot va xizmatlarga talab 500 mlrd doll. ni tashkil etadi. 100 dan ortiq firmalar vositalar (ekotexnika va ekotexnologiyalar) yaratmoqda. Ular yordamida zararli va xavfli yadro chiqindilar qayta ishlanmoqda, suvlarni tozalanmoqda. Tabiatni muhofaza etuvchi vositalar ishlab chiqarishda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Italiya, Franstiya, Buyuk Britaniya oldingi o'rinlarda turadi;

4) Texnika va texnologiyalarning informastion (axborot)funkstiyasi. Bunga avvalo aloqa (telefon, videotelefon, telefaks, telegraf, televideniya, zlektron pochta va b.) sohasidagi inqilobiy o'zgarishlar kiradi.

Jahon xo'jaligi rivojlanishining xususiyatlari va an'analari
(A.P.Kuznestov bo'yicha)



Texnologiya (yun. techne – mohirlik, san'at, uquv va ... logiya) – xom ashyo, material yoki yarim fabrikatning holatini, xossalarini, shakllarini o'zgartirish yoki ularga ishlov berish metodlari majmui. Texnologiyaning fan sifatidagi roli va vazifasi mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iboratdir.

Texnopark, texnologik park – fan, ta'lim va ishlab chiqarishni ilmiy tashkilotlar, loyiha-konstruktorlik byurolari, o'quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari birlashmasi ko'rinishida hududiy uyushtirish shakli. Texnopark yuqori malakali mutaxassislarning bir joyga to'planishi natijasida ilmiy-

texnika va texnika-texnologik ishlanmalarini yaratish ularni qo'llashni jadallashtirish maqsadlarida tashkil etiladi.

Kompyuterlashtirish – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida elektronikadan foydalanish. EHM bugungi kunda hozirgi zamon ITI ning ramzidir. Keyingi o'n yilliklarda elektronika inson faoliyatiga bo'hronddek kirib keldi. Kompyuterlashtirish esa deyarli butun dunyoni egalladi. Rivojlangan mamlakatlar kompyuter, ayniqsa telefon yoki televizor maishiy sohaning odatiy vositasiga aylandi. Shuning uchun elektronikaning inqilobiy ta'sirini inson stivilizastiyasidagi olovdan foydalanishga o'tish, bug` energiyasidan foydalanish, elektr tokini kashf etilishi, atomni parchalanishi kabi olamshumil inqiloblar qatoriga kiritishadi.

Elektronika elektrotexnika tarkibida XX asr boshlarida vujudga keldi. EHM ning kashf etilishi bilan mustaqil tarmoq sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Qisqa muddatda mahsulot ishlab chiqarish 40 – 50 martaga oshdi. Dastlab bu sohada AQSh, Yaponiya va G'arbiy Evropa etakchilik qildi. Keyinchalik ular tarkibini elektronika xo'jaligining xalqaro ixtisoslashgan tarmog'iga aylangan Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar – Koreya R., Singapur, Tayvan o. to'ldirdi. Ko'p tarmoqli iqtisodiyotga ega AQSh va Yaponiyaning mashinasozlik tarmog'ida elnktronikaning ulushi 1990 yillarning o'rtalarida 40 – 45 % ga ko'tarildi. Elektronikani 4 ta kichik tarmoqqa ajratadilar: 1) professonal apparaturalar (EHM, aloqa vositalari, elektro va radio aniqlagich vositalar va b.) ishlab chiqarish; 2) maishiy soha vositalari ishlab chiqarish; 3) harbiy va kosmik apparatlar ishlab chiqarish; 4) yuoridagi barcha tarmoqlarga ehtiyot qism (elektron komponentlar) ishlab chiqarish.

Dunyoda birinchi EHM 1946 yil AQSh ning Plsilvaniya universitetida tayyorlangan. U 18 ming lampadan iborat, og'irligi 30 t, 200 kv m joyni egallagan, sekundiga 5000 operastiyani bajargan. Qisqa davr orasida EHM ning ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi avlodlari yaratildi. XXI asr boshlarida AQSh dagi superkompyuter bir soniyada 7,2 trln operastiyani

bajargan bo'lsa, yaponlarning 5100 mikroprostessordan iborat superkompyuteri bir soniyada 35,6 trln operastiyani amalga oshirmoqda.

3-jadval

100 kishiga personal kompyuterlar soniga ko'ra etakchi o'n mamlakat (2005 y.)

Mamlakat	100 kishiga personal kompyuterlar soni		Mamlakat
Shveytariya	840	700	Kanada
AQSh	800	680	Daniya
Shvestiya	780	680	Niderlandiya
Isroil	750	640	Lyuksemburg
Avstraliya	700	630	Buyuk Britaniya

Biotexnologiya – ishlab chiqarish jarayonida tirik organizmlar, biologik mahsulot va biotexnik tizimlardan foydalanish metod va usullar majmuasi, yig'indisi. Boshqacha talqin etilganda, biotexnologiya hayvon, o'simlik va mikroorganizmlar genetik materialini o'zgartirish uchun zamonaviy bilimlar va texnologiyalarni qo'llab yangi natijalarga erishishdir.

Biotexnologiyani ko'pgina olimlar shartli ikkiga - “eski” Biotexnologiya va “yangi” Biotexnologiyaga ajratadilar. “Eski” Biotexnologiya uzoq davrlardan beri an'anviy mikrobiologik ishlab chiqarish asosida rivojlanib kelmoqda. Jumladan, mikroorganizmlar yordamida achish, bijg'ish jarayonlarida foydalanib, non mahsulotlari, vino, pivo, pishloq, sirop-sharbat, sut mahsulotlari em-xashakdan silos tayyorlashda keng foydalanilmoqda. “Yangi” Biotexnologiyaga genetik va hujayra injeneriyasi misol bo'ladi. B. qo'llanilish sohalari juda ko'p. 1992 yil Rio-de-Janeyroda o'tgan konferenstiyaning “XXI asr kun tartibi”da Biotexnologiya o'nlab maqsadlarda foydalanilishi qayd etilgan.

Ishlab chiqarishni mujassamlashuvi – ishlab chiqarish fondlari, yalpi mahsulot yoki ishchi va xizmatchilarning turli korxona, shahar va rayonda yig`ilishi, to`planishi shakli. Shuningdek, agregat va zavod ko`rinishidagi mujassamlashuv ham tafovut qilinadi. Mas., yiliga 10 – 15 mln t quvvatga ega metallurgiya kombinati, 4 – 5 mln kVt quvvatga ega IES va b.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi – bir mahsulot, mahsulotning bir detaliga ishlov berish yoki texnologik jarayonning bir bosqichiga moslashish(mustaqil ishlab chiqarishga moslanish) shakli. Ishlab chiqarishni ixtisoslashuvining uch(korxona, shahar va rayon) bosqichi va uch (qism(detal), texnologik yoki yarim mahsulot va predmet(tayyor mahsulot) ishlab chiqarish) turi mavjud. Korxona ishlab chiqaradigan mahsulotlar xili qancha kam bo`lsa, uning ixtisoslashish darajasi shuncha yuqori bo`ladi. Mehnat taqsimotining chuqurlashishi ixtisoslashish darajasining oshishiga olib keladi.

4 – jadval

Dunyodagi yirik GES lar

Nomi	Mamlakat	Loyiha quvvati, mln kVt	Ishga tushirilgan yili
Sansi	Xitoy	18,2	2009
Itaypu	Braziliya – Paragvay	12,6	1983
Grand-Kuli	AQSh	10,8	1942
Guri	Venesuela	10,3	1968
Tukurui	Braziliya	8,0	1984
Sayan-Shushensk	Rossiya	6,4	1980
Korpus-Posados	Argentina – Paragvay	6,0	1990
Krasnoyarskiy	Rossiya	6,0	1968

La-Grand-2	Kanada	5,3	1979
Cherchill-Folz	Kanada	5,2	1971
Ksindo	Braziliya	5,0	1987
Tarbela	Pokiston	4,7	1977
Bratsk	Rossiya	4,5	1961
Ust-Ilinsk	Rossiya	4,3	1977
Kabora-Bassa	Mozambik	4,2	1975
Rog'un	Tojikiston	3,6	1985
Oak Krik	AQSh	3,6	1985
Paulo-Afonso-1	Braziliya	3,4	1955
Ilya-Salteyra	Braziliya	3,2	1973
Nurek	Tojikiston	3,0	1976

Geografik mehnat taqsimoti – ijtimoiy mehnatning hududiy taqsimlanish shakli. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti – ayrim mamlakatlarning muayyan mahsulot turlarini ishlab chiqarishga, muayyan xizmatlarni bajarishga ixtisoslashishida va keyin ularni ayirboshlashidir. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti tushunchasi N. N. Baranskiy, I. A. Vitver, N. N. Kolosovskiy, Yu. G. Saushkin, I. M. Maergoyz, P. M. Alampiev, B. N. Semevskiy, E. B. Alaev, A. S. Soliev, Z. M. Akramov, A. Qayumov, A. Ro`ziev, Q. N. Abirqulov kabi geograflar tomonidan o`rganilgan. N. N. Baranskiy bu tushunchaning asoschisi sanaladi. U Xalqaro geografik mehnat taqsimotining mazmun va mohiyatini quyidagicha tavsifladi: 1) Geografik mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy shakli; 2) rayonlararo va xalqaro m. t.ga ajratdi; 3) G. m. t. ning asosini – tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy ikki muhim omilni keng tavsifladi; 4) Xalqaro geografik mehnat taqsimoti rivojlanishining tarixiy jarayonlarini chuqur o`rgandi; 5) mehnat unumdorligining oshishi, iqtisodiy rayonlarning shakllanishi va ixtisoslashuvi Geografik mehnat taqsimotining asosiy oqibati ekanligini ta'kidladi; 6) Geografik mehnat taqsimoti iqtisodiy

geografiyaning asosiy tushunchasi deb atadi; 7) Geografik mehnat taqsimoti bilan jahon xo'jaligi tushunchalarini birgalikda ko'rish lozimligini ta'kidlab, **Geografik mehnat taqsimoti jahon xo'jaligini "yuragi", harakatlantiruvchi kuchi** deb ta'rifladi.

N.N. Baranskiy u yoki bu mamlakatni paxta, suli, javdar, sholi ishlab chiqarishi Xalqaro geografik mehnat taqsimotida ishtiroki emas, balki mamlakatlarni xilma-xil mahsulot ishlab chiqarishini anglatadi xolos deb alohida takidlab o'tgan. Qachonki turli mamlakatlar bir-biri uchun ishlasa, mehnat mahsuli-natijasi bir mamlakatdan ikkinchisiga tashilsagina Xalqaro geografik mehnat taqsimoti ro'y beradi.

Xalqaro geografik mehnat taqsimoti formulasi

$$S_v = S_p + t$$

S_v - sotiladigan joyda mahsulot narxi

S_p - **ishlab chiqariladigan** joyda mahsulot narxi

T - transport xarajati

Transport jahon xo'jaligining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U geografik mehnat taqsimotida ro'y beradigan o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Ko'pincha transportni jahon xo'jaligining rivojlanish barometri sifatida ham baholashadi.


Jahon transport tizimi tushunchasi barcha transport aloqa yo'llarini va transport vositalarini o'zida mujassamlashtiradi. Jahon transport tizimiga tarif berilganda, uning quyidagi ko'rsatgichlari asos qilib olinadi: birinchidan, aloqa yo'llari to'ri, ikkinchidan, transport ishi, uchinchidan, asosiy yuk va yo'lovchi oqimi.

Jahon transport to'rini o'rganishda turli qirralari tahlil qilinadi. Birinchidan, jahon transportining rivojlanish dinamikasi, ikkinchidan, transport to'rining hozirgi holati.(5-jadval).

Jahonning transport tizimi (ming km)

Transport yo`llarining turlari	1950 yil	1979 yil	1980 yil	1990 yil	1995 yil	2005 yil
Temir yo`llar shundan, elektrlashtirilgan	1320 60	1340 125	1248 164	1210 193	1180 200	1050 ***
Avtomobil yo`llari shundan, qattiq qoplamli, takomillashtirilgan	15540 7645 2920	19700 12151 5860	22300 16000 9210	23600 20000 11700	24000 22000 13000	325000 ***
Kema qatnovchi daryo va kanallar	560	525	540	544	550	550
Neft quvurlari	175	395	520	600	680	850
Gaz quvurlari	186	545	760	900	1100	1400
Havo yo`llari	3300	5510	6900	7900	8500	11500

*** aniq ma'lumot olinmadi.



2-chizma. Jahon transport tizimi ko'rsatkichlari

Transport ishi yuk va yo'lovchi tashish ko'lamini va tarkibi bilan aniqlanadi:

Yuk tashish ko'lamini yiliga 100 mlrd tonnadan oshib ketdi.

Temir yo'l transporti sanoat inqilobi davrida vujudga keldi. U butun XIX asr davomida va XX asrning o'rtalarigacha asosiy transport turi bo'lib xizmat qildi.

Birinchi temir yo'l 1830 yil Angliyada Manchester – Liverpool shaharlari orasida qatnay boshladi. Shu yili AQShning Charlston – Ogasta shaharlarini bog'lovchi temir yo'l ishga tushirildi. Shundan so'ng, 1833 yil Franstiyada, 1835 yil Germaniya va Belgiyada, 1837 yil Rossiyada temir yo'llar ishga tushirildi.

Temir yoʻl transporti toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni 6-jadval orqali oʻrganing.

6 – jadval

Jahon mamlakatlarida temir yoʻl uzunligi va temir yoʻl toʻrining zichligi, 2005 y.

Mamlakat	temir yoʻl uzunligi, ming km	temir yoʻl toʻrining zichligi, har 1000 km ² da km
AQSh	231	14
Rossiya	85	5
Hindiston	63	10
Xitoy	61	6
Kanada	60	4
Avstraliya	40	5
Argentina	36	13
Germaniya	35	56
Braziliya	30	4
Franstiya	29	50
Meksika	27	14
Ukraina	22	43
Polsha	20	61
Yaponiya	20	53
JAR	20	16
Buyuk Britaniya	16	32
Italiya	16	70
Qozogʻiston	15	6
Ispaniya	14	67
Shvestiya	12	26
Pokiston	12	14
Ruminiya	11	38

Avtomobil transporti eng qulay transport turidir. Dunyoda birinchi avtomagistrallar 1914 yil AQShda, 1921 yil Germaniyada, 1924 yil Italiyada qurilgan. Avtomobil transportining xususiyatlarini tavsiflashda avvalo avtomobil yo'llarining uzunligi olinadi. (7-jadval)

7-jadval

Yetakchi mamlakatlarda avtomobil yo'llarining uzunligi, 2005 y.

Mamlakat	Yo'llarning uzunligi, ming km		Mamlakat
AQSh	6550	580	Rossiya
Hindiston	3350	440	Turkiya
Braziliya	2000	430	Buyuk Britaniya
Xitoy	1250	390	Polsha
Yaponiya	1200	380	JAR
Franstiya	1000	375	Indoneziya
Kanada	980	350	Meksika
Italiya	820	260	Pokiston
Avstraliya	820	240	Argentina
Ispaniya	660		
Germaniya	650		

Jahon avtomobil parkida avtomobillar soni yildan-yilga ko'paymoqda. Birinchi jahon urushi arafasida taxminan 350 ming avtomobil bo'lgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushi arafasida 46 mln, 1950 yil 50 mln, 1975 yilda 300 mln dona, 1987 yil 500 mln, 1997 yil 600 mln, 2007 yilda 800 mln donaga chiqdi.

XX asrning o'rtalarida quvurlarning uzunligi 350 ming km bo'lgan bo'lsa, 2005 yilga kelib, 2 mln km dan oshib ketdi. Quvur transporti joylashuvida xomashyo, eksport va import imkoniyati, iste'mol kabi omillar yaqqol ifodalanadi.

Quvurlarning uzunligi bo'yicha etakchi mamlakatlar (2005)

Mamlakat	Quvurlarning uzunligi, ming km		
	Neft va neft mahsulotlarining quvurlari	Gaz quvurlari	Jami
AQSh	260	335	595
Rossiya	65	160	225
Kanada	43	75	118
Germaniya	4	98	102
Meksika	40	13	53
Franstiya	6	25	31
Italiya	4	20	24
Xitoy	10	11	21
Argentina	7	10	17
Buyuk Britaniya	4	13	17

Dengiz transporti qadimiy transport turlaridan biri. XX asrning o'rtalaridan boshlab kemachilikning rivojlanishi uzoq masofada turgan ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi rayonlar orasidagi aloqani mustahkamladi. Bugungi kunda Buyuk Britaniya va Yaponiya tashqi savdosining 98 % i, AQSh ning esa 90 % i dengiz transporti orqali amalga oshirilmoqda.

Atlantika okeani dengiz transportida birinchi o'rinda, keyingi o'rinlarda, Tinch okean, Hind okean, Shimoliy muz okean turadi.

II.2. “Jahon xo’jaligi va ITI” mavzusini o’rganish bo’yicha 2 soatlik amaliy dars ishlanmasi va uning texnologik xaritasi

O’zbekiston Respublikasining DTS ga muvofiq o’quvchilarni Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursida egallashlari shart bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar quyidagilar:

Avvalo bilim, ko’nikma va malaka quyidagicha tavsiflanadi:


Bilim – o’quv fanini bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi(nazariy bilimlar).

Ko’nikma – bu o’zlashtirib olingan bilimlar asosida amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorgarlikda ifodalanadigan ongli faoliyat.

Malaka – o’quvchining ma’lum fan yuzasidan o’zlashtirgan bilim, ko’nikmalarni amaliyotda qo’llay bilishi.

Darsning xronologik xaritasi – 45 minut

1. Tashkiliy qism - 3 minut
2. “Jahon xo’jaligi va ITI” mavzusini o’rganish bo’yicha muloqot savollari berish va o’quvchilarning ushbu mavzu bo’yicha bilim darajasini aniqlash.
Suhbat, muloqot, testlar, xaritadan so’rash - 10 minut
3. Darsning asosiy qismi - 25 minut
4. Darsni yakunlash va o’quvchilar o’zlashtirishlarini baholash - 5 minut
5. Uyga vazifa - 2 minut



3 – rasm. Darsning xronologik xaritasi

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanidan amaliy mashgʻulotlarni tashkil etishda oʻqituvchi uchun nazariy va amaliy bilim beruvchi adabiyotlarni tanlash muhim va masʼuliyatli vazifalardan sanaladi. Hozirgi kunda mazkur fan boʻyicha etarli darajada adabiyotlar chop etilgan (Maksakovskiy V. P. Geografiya (Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). Oʻrta maktablarning 10 sinfi uchun darslik. – T.: Oʻqituvchi,

1995. – 320 b., Maksakovskiy V.P. Geografiya. Ekonomicheskaya i sostialnaya geografiya mira. 10 klass. Uchebnik dlya obshchobrazovatelnykh organizastiy. (21 izdanie). M.: Prosveshchenie, 2013 ., Qayumov A. va boshq. “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi”. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 9-sinf o`quvchilari uchun darslik. (A. Qayumov, I. Safarov, M. Tillaboyeva) T.: “O`zbekiston” NMIU, 2010. – 224 b.)

Mazkur adabiyotlar orasida V.P.Maksakovskiyning Geografiya (Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. O`rta maktablarning 10 sinfi uchun darslik. – T.: O`qituvchi, 1995. – 320 b). va Qayumov A. va boshq. “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” darsliklari asosida amaliy mashg`ulotlar tuzilmoqda. Men o`quvchilarni nazariy va amaliy bilim olishlari uchun quyidagi adabiyotlarni tavsiya qildim.

8-jadval

Amaliy mashg`ulotlar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

Nazariy bilim olish uchun	Amaliy mashg`ulotlarni bajarish uchun
1. E. B. Alaev. Sostialno-ekonomicheskaya geografiya: Ponyatiyno-terminologicheskiy slovar – M. : Mysl, 1983. – 350 s. 2. Basovskiy L.E., Fomicheva I.V. Ekonomicheskaya geografiya Rossii. M: Izdatelstvo RIOR, 2005, 117 str. 3. Geografiya: (uchebnik dlya stud. obrazovat. uchrejd. sred. prof. obrazovaniya. / [E. V. Baranchikov, S. A. Goroxov, A. E. Kozarenko i dr.] ; pod. red. E. V. Baranchikova. – 11-e izd., ster. – M. : Izdatelskiy stentr «Akademiya», 2012. – 480 s.) 4. Gladkiy Yu.N., Lavrov S.B. Globalnaya geografiya.11 kl: M. Drofa, 2001, 352 str. 5. Rodionova I. A. Ekonomicheskaya geografiya. M. Izdatelstvo “Ekzamen”, 2003, 672 str. 6. “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanidan uslubiy qo`llanma. 1-qism. T. J.Jumaboev, N.X. Mamatqulov, F.B.Bahriev. Samarqand, 2008.	1.V.P.Maksakovskiy Geografiya (Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. O`rta maktablarning 10 sinfi uchun darslik. – T.: O`qituvchi, 1995. – 320 b 2. Maksakovskiy V.P. Metodicheskoe posobie po Ekonomicheskaya i sostialnaya geografiya mira. 10 klass. Uchebnik dlya obshchobrazovatelnykh organizastiy. (21

SamDU. – 52 b.) 7. Maksakovskiy V. P. Geograficheskaya kartina mira. V 2 kn. Kn. 1 : Obshchaya xarakteristika mira / V. P. Maksakovskiy. – 4-e izd., ispr. – M. : Drofa, 2008. – 495, [1] s. :il., kart. 8. Skopin A. Yu. Ekonomicheskaya geografiya Rossii : ucheb. – M. : TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005. – 368 s 9. Sodiq, Sanjar. Mamlakatshunoslik asoslari: o'quv qo'llanma / S. Sodiq; mas'ul muharrir S.Olim; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi, O'zbekiston Davlat jahon tillari un-ti. – T. : MUMTOZ SO'Z, 2012. – 164 b. 10. Qayumov A. va boshq. "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun darslik. (A. Qayumov, I. Safarov, M. Tillaboyeva) T.: "O'zbekiston" NMIU, 2010. – 224 b. 11. Shar'igin, M. D. Vvedenie v ekonomicheskuyu i sostialnuyu geografiyu: ucheb. posbie dlya vuzov / M. D. Shar'igin, V. A. Stolbov. – M. : Drofa, 2007. – 253, [3] c. : il. 12. Sostialno-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. Pod red. V.V.Volskogo. –M: Kron-Press, 1998, 592 b.	izdanie). M.: Prosveshchenie, 2013. Tashov X.R. Testy po ekonomicheskoy i sostialnoy geografii mira. Toshov X.R., Allayorov I.Sh. Avstraliya Ittifoqi geografiyasi. O'quv qo'llanma. Buxoro. "Buxoro nashriyoti", 2011 y, 60 b. Qayumov A. va boshq. "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun darslik. (A. Qayumov, I. Safarov, M. Tillaboyeva) T.: "O'zbekiston" NMIU, 2010. – 224 b.
--	---

“Jahon xo'jaligi va ITI” mavzusini o'rganish bo'yicha 2 soatlik amaliy dars ishlanmasi

Sana: 10 dekabr, 2014 yil

Sinf: IX^b

Mavzu: “Jahon xo'jaligi va ITI”

Maqsad : O'quvchilarning Jahon xo'jaligi geografiyasi va ilmiy-texnik inqilob to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash.

Ta'limiy: Jahon xo'jaligi tarkibi, joylashuvi, dinamikasi, ilmiy –texnik inqilob ramzlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan yaqindan tanishish. Bundan tashqari mavzu bo'yicha xarita ishlash, chizmalarni tahlil qilish.

Rivojlantiruvchi: Jahon xo'jaligi geografiyasi va ilmiy-texnik inqilobga oid ma'lumot va xaritalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Tarbiyaviy: millatlararo totuvlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish.

Turi: amaliy, yangi bilimlarni mustahkamlovchi dars.

Metodlari: Kartografik, statistik, aqliy hujum, suhbat, tarixiy yondashuv, qiyoslash.

Jihozlash: Darslik, qo'llanmalar, Jahon xo'jaligi geografiyasi va ilmiy-texnik inqilob ko'rsatgichlariga oid jadvallar, diagrammalar, chizmalar

Darsni tashkil etish va o'tkazish modeli

A. darsga sinf yoki xona va o'quvchilarni tayyorgarligini - tozaligi, davomoti, o'quv anjomlarini mavjudligini aniqlash.

B. O'tgan darsning mavzusi bo'yicha uyga berilgan vazifani va savollar orqali bilim, ko'nikma va malakalarini baholash.

V. Darsni borishi : unga muvofiq topshiriqlarni (jadvallar, testlar majmui, diagrammalar, chizmalar) bajarish, darslik bilan ishlash

G. Darsning mavzusi bo'yicha o'quvchilarni savollar orqali bilim, ko'nikma va malakalarini baholash va uyga vazifa berish.

Yangi mavzuni bayon etish:

Yangi mavzu: Jahon xo'jaligi geografiyasi va ilmiy-texnik inqilob (2 soat)

Raja

- 1.Dunyo xo'jalik tarmoqlar tarkibini o'rganish
- 2.Dunyo xo'jalik tarmoqlar tuzilishini o'rganish
- 3.Dunyo xo'jaligining geografik modelini o'rganish
4. Ilmiy – texnik inqilob ramzlari va atamalarini o'rganish

IPT – amaliy mashgʻulot, AQLIY HUJUM, “baxs-munozara”, “guruhli fikrlash”

IAT VOSITASI – GRAFIK, XARITA, JADVAL , skaner, proektor


Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinf oʻquvchilari uchun darslikning (Qayumov A. va boshq. “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografyasi”. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinf oʻquvchilari uchun darslik. (A. Qayumov, I. Safarov, M. Tillaboyeva) T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2010. – 224 b.) 47 – 84 betlarida mazkur mavzu 4 va 5 mavzularda 11 – 22 boʻlimlarda bayon qilingan. Har bir boʻlim uchun oʻrtacha ikkitadan amaliy mashgʻulot topshiriqlari berilgan. Oʻqituvchi ularni saralab oladi.

1-topshiriq. FTI va FTT tushunchalari orasidagi oʻxshashlik farqlarni daftaringizga yozib oling. Manba darslikning 48 beti.

2-topshiriq. Fan-texnika inqilobining asosiy yoʻnalishlari 3-chizmasini daftaringizda tasvirlang.

3-chizma

Fan-texnika inqilobining asosiy yoʻnalishlari



3-topshiriq. Hozirgi vaqtda mavjud Evropa Ittifoqi, ASEAN, NAFTA va boshqa iqtisodiy bloklar tarkibidagi davlatlar nomini daftaringizga yozib oling(metodik ochqich ma'lumotlaridan foydalaning). Mazkur mamlakatlarni yozuvsiz xaritada belgilang.

Metodik ochqich:

Evropa Ittifoqi – mamlakatlarning mintaqaviy siyosiy, iqtisodiy, madaniy integratsiyasini yaqqol ifodasi bo'lib, ishlab chiqarishning barcha sohalari va omillari bo'yicha erkin ayirboshlash shakllantirilgan yagona makon. EI ni shakllanish tarixi bir necha bosqichdan iborat. Dastlab, 1951 yilda Evropa ko'mir va po'lat birlashmasi (Franstiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) xalqaro tashkiloti tuzildi. 1957 yilga kelib bu olti mamlakat Rimda “ Evropa Iqtisodiy Hamjamiyati ” va “ Atom energetikasi bo'yicha Evropa Hamjamiyati ” nomli 2 ta shartnomani imzoladilar. Hamjamiyat tarkibiga 1973 yil Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, 1981 yil Grestiya, 1986 yil Ispaniya, Portugaliya, 1995 yil Avstriya, Finlyandiya, Shvestiya, 2004 yil Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, Latviya, Litva, Estoniya, Malta, Kipr, 2007 yil Ruminiya, Bolgariya a'zo bo'lib kirdi. 1958 yilda bu tashkilot norasmiy ravishda “ Umumiy bozor ”, 1973 yildan barcha rasmiy hujjatlarda “ Evropa Hamjamiyati ”, 1993 yildan esa “ Evropa Ittifoqi ” deb yuritilmoqda. EI Evropa Kengashi (Bryussel), Evropa Komissiyasi (Bryussel), Evropa Parlamenti (Strasburg), Evropa Sudi (Lyuksemburgda joylashgan) kabi boshqaruv organlariga ega. Bugungi kunda EI hududi 4 mln.kv km ga yaqin, bu mintaqada 450 mln. dan ortiq aholi yashamoqda. Jahon iqtisodiyotida EI muhim mavqega ega, jumladan, jahon YaIM va sanoat ishlab chiqarishining 1/5, jahon savdosining 2/5 qismi ushbu mintaqada tayyorlanmoqda. 2002 yildan yagona Evro valyuta (dastlab, 12 ta, 2015 yilda esa EI ning 18 ta mamlakatida) muomalaga kiritildi.


Shengen ahdnomasi – vizasiz yagona Evropa makonini barpo etish maqsadida 1995 yil martdan boshlab kuchga kirgan ahdnoma. Shu yili Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Franstiya, GFR, Italiya, Grestiya, Ispaniya,

Avstriya, Portugaliya, 2001 yildan Finlyandiya, Shvestiya, Daniya, Islandiya, Norvegiya ushbu ahdomani imzoladilar. Argentina va Kosta – Rikadan Latviya va Litvagacha bo'lgan 45 mamlakat fuqarolari Sh.a. bo'yicha EI mamlakatlarga vizasiz kirish huquqiga ega.


tasvirlang.

4-topshiriq. Xo'jalik tarmoqlari ro'yxatini (4-chizma) daftaringizga yozib oling va tavirlang.

4-chizma




5-topshiriq. Xo'jalik tarmoqlari ro'yxatini (5-chizma) daftaringizga yozib oling va tavirlang.




6-topshiriq. XX asr oxiriga kelib Dunyo xo'jaligida aloqalarida baynalminallashuv (internastionallashuv) shu qadar chuqurlashdiki, u Dunyo xo'jaligi rivojlanishining asosiy omiliga aylandi. Ushbu satrlar mohiyatidan kelib chiqib, transmilliy korpora-stiyalar (TMK) ning faoliyat turlarini (6-chizma) va motivastiyalari (7-chizma) ni tahlil qiling.

TMK larning xorijdagi asosiy faoliyat turlari



TMK lar xarijiy faoliyatining motivastiyasi



7-topshiriq. Dunyoning yirik sanoat korporastiyalarini (9-jadval) tarmoqlar bo'yicha tahlil qiling va ular joylashgan mamla-katlarni yozuvsiz xaritada belgilang, xoxishingizga ko'ra ixtiyoriy birta TMK faoliyatining geografik xususiyatlarini tavsiflang.

Dunyoning yirik sanoat korporastiyalari

Korporastiyalar	Mamlakatlar	Tarmoqlar
«Djeneral motors»	AQSh	Avtomobil
«Royyal Datch-Shell grup»	Buyuk Britaniya Niderlandiya	Neft mahsulotlari
«Ekson»	AQSh	Neft mahsulotlari
«Ford motor»	AQSh	Avtomobil
«Interneshonal biznes meshins»	AQSh	EHM
«Mobil»	AQSh	Neft mahsulotlari
«British petroleum»	Buyuk Britaniya	Neft mahsulotlari
«Toyota motor»	Yaponiya	Avtomobil
«IRI»	Italiya	Metallar
«FIAT»	<i>Italiya</i>	Avtomobil
«Teksako»	AQSh	Neft mahsulotlari
«Amerikan telefon end telegraf»	AQSh	Elektronika
«E.I.du Pont de Nemur»	AQSh	Kimyo mahsulotlari
«Xitachi»	Yaponiya	Elektronika
«Simens»	GFR	<i>Elektronika</i>
«Nestle»	Shveytariya	Oziq-ovqat mahsulotlari
«Filip Morris»	AQSh	Tamaki mahsulotlari
«Reno»	Franstiya	Avtomobil
«BASF»	GFR	Kimyo mahsulotlari

Murakkablashtirilgan topshiriqlar


A) Mamlakat va ayrim regionlar xo'jaligining tarkibi ikkita asosiy ko'rsatgichlarga ko'ra tahlil qilinadi:

- 1) Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibi bilan;
- 2) Band aholi tarkibi bilan.

Yuqoridagilarga asosanib 6-7-chizmalardagi so'roqlar o'r-niga mos so'zlarni qo'yib fikringizni izohlang. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar xo'jaligi tarkibining xususiyatla-rini tahlil qiling.


10-jadval

Aholi bandligi (dunyo bo'yicha)




7-chizma.


Dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot tarkibi




Dunyo bo'yicha




?




?



**Nomoddiy
tarmoqlar**



**Ikkilamchi
tarmoqlar**



birlamchi tarmoqlar

So'roqlar (?) o'rniga rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar so'zlari qo'yilishi lozim.

Izoh: Birlamchi tarmoqlar tushunchasi xomashyo ishlab chi-qaruvchi sohalarni, ikkilamchi tarmoqlar esa qayta ishlash sohalarini ifodalaydi.

B) Dunyo xo'jaligining hududiy farqlanishni yoki enlama ko'lamda geografik jihatdan ko'rinishini tahlil qiling. «Markaz», «Yarim chekka», «chekka» atamalarini izohlang.

Uslubiy ko'rsatma: «markaz»-hozirgi informastion iqtisodiyotga ega rivojlangan mamlakatlar bo'lib, ular soni XX asr oxirida taxminan 25 ta, er shari quruqligining 1/5 qismi, er shari aholisining 15% ga yaqini ular ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur mamlakatlarda dunyo yalpi sanoati mahsulotining 50 foizidan ortig'i ishlab chiqarilmoqda.

7. XX asr so'nggi yillarida «Markaz», «yarim chekka» va «chekka» mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini quyidagi ochiqch so'zlar yordamida (11-jadvalda) tavsiflang.

A) Iqtisodiyot tiplari: agrar va qayta ishlash, industrial, informastion (industrial orti);

B) Yakuniy iqtisodiy maqsadi: qayta ishlash sanoati zaminida mahsulotlar ishlab chiqarish, «Bilim» va fantalab mahsulotlar ishlab chiqarish, agrar soha va sanoat xom ashyosi ishlab chiqarish;

V) Iqtisodiy o'sish: miqdor etakchi, sifat, miqdor;

G) Resurslardan foydalanish tipi; samaradorli, ulardan iste'molda foydalanishning kamayib borishi, resurslardan foydalanishning bir necha turlari mavjud, energiya, xomashyo va materiallardan maksimal foydalanish;


D) Ekologik vaziyat: ekologik muammolarning keskinlashuvi, iqtisodiyotda ekologiyalashuvning yaxshilanib borishi;

E) Xo'jalikning joylashuviga ta'sir qiluvchi omillar: agroiqlim resurslari, arzon ishchi kuchi, hozirgi zamon infrastrukturasi, ilmiy-texnik salohiyat, tabiiy resurs salohiyati, mala-kali mehnat resurslari, transport.

«Markaz», «yarim chekka» va «chekka» mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari.

Ko'rsatkichlar	«Markaz» mamlakatlar	«Yarim chekka» mamlakatlar	«Chekka» mamlakatlar
Iqtisodiyot tipi			
Yakuniy iqtisodiy maqsad			
Iqtisodiy o'sish			
Resurslardan foydalanish tipi			
Ekologik vaziyat			
Xo'jalikning joylashuviga ta'sir qiluvchi omillar			

V) Ayrim mamlakatlar va regionlarning Dunyo xo'jaligida tutgan mavqei ko'pgina hollarda ikkita iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan, ya'ni iqtisodiyot ko'lami va iqtisodiy rivojlanish dara-jasiga ko'ra belgilanadi. quyidagi 8-chizma yordamida Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajalarini tahlil qi-ling. Bu ko'rsatkichlarga erishish yo'llari va omillarini biror mamlakat misolida tushuntiring.



8-chizma. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi.

Muloqot uchun savollar

1.Dunyo xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishiga qanday omillarning ta'siri katta bo'ldi?

- 2.Hozirgi zamon Dunyo xo'jaligi geografik «modeli» ning o'ziga xos asosiy xususiyati nima?
- 3.Dunyo xo'jaligining tarkibi qanday tarmoqlarga bo'linadi?
- 4.Dunyo xo'jaligi tarkibi bilan xo'jalikni hududiy tashkil qilish o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
- 5.FTI davrida moddiy ishlab chiqarish bilan nomoddiy ishlab chiqarishlar nisbati nima uchun o'zgaradi?
- 6.Xalqaro geografik mehnat taqsimoti deb nimaga aytiladi?
- 7.N.N.Baranskiy iqtisodiy geografik o'rning necha xilini ajratdi?
- 8.Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar xo'jaligining hududiy tuzilishi va regional siyosatga xos xususiyatlarni sanab bering.
- 9.Rivojlanayotgan mamlakatlar xo'jaligining hududiy tuzilishi va regional siyosati uchun qanday xususiyatlar xos?
10. Nima uchun transport geografik mehnat taqsimotining asosini tashkil etadi?
- 11.FTI jahon transport tizimida qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi?
- 12.Iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning transport tizimlari qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
- 13.Konteynerlashtirish jahon transportining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
- 14.Dengiz va daryo transporti jahon transport tizimida qanday o'rin egallamoqda?
- 15.Xalkaro dengiz kanallari va dengiz bo'g'ozlaridan qaysilari dengiz transport geografiyasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda?
- 16.Dunyodagi qaysi daryolarning transport imkoniyatlari katta?
- 17.Jahonda temir yo'l transportining rivojlanishiga qanday omillar katta ta'sir qilmoqda?
- 18.Nima uchun avtomobil transportini «XX asr transporti» deyiladi?
19. Quvvur transportining joylashuvi va rivojlanishi qanday omillarga bog'lik?

20.Dunyodagi qaysi shaharlarda bir necha yirik aeroportlar mavjud?

Dars ishlanmasining texnologik xaritasi

9-mavzu	“Jahon xo’jaligi va ITI”
----------------	---------------------------------

1.1 Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi

Mashg`ulot vaqti-2 soat	O`quvchilar soni 30 ta
Mashg`ulot shakli	Amaliy
Ma’ruza rejasi	1.Dunyo xo’jalik tarmoqlar tarkibini o’rganish 2.Dunyo xo’jalik tarmoqlar tuzilishini o’rganish 3.Dunyo xo’jaligining geografik modelini o’rganish 4. Ilmiy – texnik inqilob ramzlari va atamalarini o’rganish
O’quv mashg`ulotining maqsadi:</b> O’quvchilarning Jahon xo’jaligi geografiyasi va ilmiy-texnik inqilob to’g`risidagi bilim, ko’nikma va malakalarini mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar: • FTI-ishlab chiqarishning asosiy rivojlantiruvchisi; • Jahon xo’jaligi murakkab tizim; • Jahon xo’jaligi ko’p markazli modelga ega;	O’quv faoliyatining natijalari: Ta’limiy: Jahon xo’jaligi tarkibi, joylashuvi, dinamikasi, ilmiy –texnik inqilob ramzlari to’g`risidagi ma’lumotlar bilan yaqindan tanishish. Bundan tashqari mavzu bo’yicha xarita ishlash, chizmalarni tahlil qilish. Rivojlantiruvchi: Jahon xo’jaligi geografiyasi va ilmiy-texnik inqilobga oid ma’lumot va xaritalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish. Tarbiyaviy: millatlararo totuvlik, vatanparvarlik,

	mehnatsevarlik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish.
Ta'lim berish usullari	amadiy, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, FSMU, klaster
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, yakka tartibda
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, virtual stendlar
Ta'lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya, o'quv xonasi
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1. Ma'ruza mashg'uloti nomini aytadi, Proektor orqali ma'ruza mashg'uloti rejalarini ekranga chiqaradi. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi. 2. Klaster asosida o'tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2-bosqich asosiy bosqich	2.1 O'quvchilar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob usulini qo'llaydi:	

(35 daqiqa)	1.Dunyo xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishiga qanday omillarning ta'siri katta bo'ldi? 2.Hozirgi zamon Dunyo xo'jaligi geografik «modeli» ning o'ziga xos asosiy xususiyati nima? 3.Dunyo xo'jaligining tarkibi qanday tarmoqlarga bo'linadi? 4.Dunyo xo'jaligi tarkibi bilan xo'jalikni hududiy tash-kil qilish o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud? 5.FTI davrida moddiy ishlab chiqarish bilan nomoddiy ishlab chiqarishlar nisbati nima uchun o'zgaradi? 6.Xalqaro geografik mehnat taqsimoti deb nimaga aytiladi? 7.N.N.Baranskiy iqtisodiy geografik o'rnining necha xilini ajratdi? 8.Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar xo'jaligining hududiy tuzilishi va regional siyosatga xos xususiyatlarni sanab bering. 9.Rivojlanayotgan mamlakatlar xo'jaligining hududiy tuzilishi va regional siyosati uchun qanday xususiyatlar xos? 10. Nima uchun transport geografik mehnat taqsimotining asosini tashkil etadi? 11.FTI jahon transport tizimida qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi? 12.Iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning	Savollarga javob beradilar, fikrlarini bildiradilar. Tinglaydilar, zarur ma'lumotlarni yozib oladilar
-------------	---	---

	transport tizimlari qanday o`ziga xos xususiyatlarga ega?</p> <p>13.Konteynerlashtirish jahon transportining rivojlanishiga qanday ta'sir ko`rsatdi? 14.Dengiz va daryo transporti jahon transport tizimida qanday o`rin egallamoqda?</p> <p>15.Xalkaro dengiz kanallari va dengiz bo`g`ozlaridan qaysilari dengiz transport geografiyasiga katta ta'sir ko`rsatmoqda? 16.Dunyodagi qaysi daryolarning transport imkoniyatlari katta? 17.Jahonda temir yo`l transportining rivojlanishiga qan-day omillar katta ta'sir qilmoqda?</p> <p>18.Nima uchun avtomobil transportini «XX asr transporti» deyiladi?</p> <p>19. Quvur transportining joylashuvi va rivojlanishi qanday omillarga bog`lik? 20.Dunyodagi qaysi shaharlarda bir necha yirik aeroportlar mavjud? 2.2. Javoblarni to'ldiradi, umumlashtiradi va bugungi o'quv mashg`ulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarini aytadi. 2.3 Ekranda slaydlar namoyish qilish orqali O'quvchilar diqqatini FTI yutuqlari, jahon xo'jaligi va uning rivojlantirish dolzarbligi va ahamiyatli ekanini ham asoslab o'tadi.	
--	---	--

	2.5 Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	
3.Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo'yicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanini alohida qayd etadi hamda kelajakda Ushbu bilimlardan qaerlarda foydalanishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot beradi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: O'tilgan mavzu bo'yicha B/B/B jadvalini to'ldirib kelish. Ikkinchi mavzu bo'yicha keyingi o'quv mashg'ulotiga tayyorlanib kelish.	Savol beradilar. Vazifani yozib oladilar

O'QUV-VIZUAL MATERIALLAR

- **Ilmiy-texnik inqilob – fan va texnika taraqqiyotidagi jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini tubdan qayta quradigan sifat o'zgarishi;**
- **Birinchi Ilmiy-texnik inqilob sifatida neolit inqilobi ajratiladi;**
- **Neolit inqilobi – insonlarni oziq-ovqat uchun zarur bo'lgan biologik resurslarni ko'paytirish maqsadida termachilikdan ishlab chiqarish xo'jalik yuritishga o'tishi yoki yangi xo'jalik yuritish tipining vujudga kelishi;**
- **Neolit inqilobi atamasi ingliz arxeologi G. Chayld tomonidan ilmiy adabiyotlarga kiritilgan;**
- **Sanoat inqilobi – qo'l mehnatidan mashinali ishlab chiqarishga o'tilish jarayoni;**
- **A. S. Sleyter “amerika sanoatining otasi”;**

- **XIX asr oxiri XX asr o`rtalarigacha bo`lgan davrni ko`pgina iqtisodchilar, iqtisodiy- geograflar mashina-texnika inqilobi davri deb ataydilar;**

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi maqsad va vazifalari yoritildi. FTIning ahamiyati, uning taraqqiyoti, iqtisodiy samaradorligi va mehnat taqsimotidagi o`rni, birinchi navbatda, uning ishlab chiqarish jarayonida harakatlantiruvchi resurs sifatidagi jihatlari bayon qilindi.

Jahon xo`jaligi va FTI mavzusini o`rganish bo`yicha 2 soatlik dars ishlanmasi va texnologik xaritasi tuzildi. Dars ishlanmasi va texnologik xaritasini tayyorlashda Davlat ta`lim standartlari asos qilib olindi. Ta`lim mazmunining majburiy minimumi talablariga rioya qilindi.

Bu uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

- “Jahon xo`jaligi va ITI” mavzusini o`rganish bo`yicha 2 soatlik dars ishlanmasini tayyorlashda Davlat ta`lim standartlari asos qilib olindi;
- Ta`lim mazmunining majburiy minimumi talablariga rioya qilindi;
- Geografiyaning nazariy asoslari – Jahon xo`jaligi va ITI” mavzusi va u bilan bog`lik muammolar o`rganildi;
- Geografiya fanlarini o`qitishda dars ishlanmalarining o`rni va ahamiyati o`rganildi;
- Darsga tayyorlanish – ta`lim sifati va mazmunini oshirishning muhim yo`llari tahlil etildi;
- Fan bo`yicha taqvim – mavzu rejasi (namuna) tuzildi;
- Jahon xo`jaligi va ITI” mavzusi bo`yicha 2 soatlik dars ishlanmasi va texnologik xaritasi tuzildi.

Muammolar: o`rta umumta`lim maktablari uchun mazkur fandan amaliy mashg`ulotlar kitobi o`zbek tilida chop etilmagan.

Men ushbu ishlanma bo`yicha quyidagi takliflarimni bildiraman:

1. Jahon xo'jaligi va ITI" mavzusi bo'yicha 2 soatlik dars ishlanmasi va texnologik xaritasini viloyat va tuman xalq ta'limi bo'limlari ko'magida takomillashtirish va ommalashtirish;

2. Jahon xo'jaligi va ITI" mavzusi bo'yicha 2 soatlik dars ishlanmasi va texnologik xaritasi matnidan dars tashqari tadbirlarda foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдурахимов М. Узбекского-русский словарь афоризмов. – 2-е изд. Т.: Ўқитувчи, 1986. – 216 с.
2. Артемьева А.Г., Максаковский В.П., Раковский С.Н., и др. Экономическая география зарубежных стран. Учебник для 9 класса средней школы. М.:Просвещение,1965.
3. Горнунг М.Б., Максаковский В.П., Раковский С.Н., Соловьева М.Г. Экономическая и социальная география зарубежных стран. (в 2-х томах) М.:Просвещение,1980; 1981.
4. Емельянов А.С. 300 вопросов и ответов по странам и континентам. Ярославль: Академия развития, 2-ое изд. 2002.–145 с.
5. Емельянов А.С. География туристских регионов и туристских центров России. Практикум. – Ярославль, ЯГПУ, 2010.– 240 с.
6. Емельянов А.С. Монастыри России: паломничество, религиозный туризм. (3 изд.). Ярославль, ЯГПУ,2010.–328 с.
7. Емельянов А.С. Этнокультурные аспекты изучения территории. Учебное пособие для вузов. Ярославль, ЯГПУ,2003.– 130 с.
8. Максаковский В.П. Актуальные проблемы России. Смоленск: Универсум, 2014.–138 с.
9. Максаковский В.П. Географическая картина мира. 230 «каналов углубления» к курсу «Экономическая и социальная география мира» (10 класс) В 3-х частях. Ярославль: Верхняя Волга, 1995; 1996; 1998.
10. Максаковский В.П. Географическая картина мира. В 2 кн. М.:Дрофа,2007;2008.
11. Максаковский В.П. Географическая культура. Учебник для вузов. М.:Владос,1997.– 416 с.
12. Максаковский В. П. География (Жаҳоннинг иқтисодий ва ижтимоий географияси). Ўрта мактабларнинг 10 синфи учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 320 б.
13. Максаковский В.П. География. Экономическая и социальная география мира. 10 класс. Учебник для общеобразовательных организаций. (21 издание). М.: Просвещение, 2013 .
14. Максаковский В.П. Историческая география мира. Учебное пособие для вузов. М.:Экопрос,1997. – 584 с.

15. Максаковский В.П. Общая экономическая и социальная география. Курс лекций. (в 2-х частях) М.:Владос, 2009.
16. Максаковский В.П. Экономика знаний. Смоленск: Универсум, 2012.–104 с.
17. Саушкин Ю.Г., Глушкова В.Г. Москва среди городов мира. М.: Мысль,1983.–286 с.
18. Социально-экономическая география: теория, методология и практика преподавания (к 90-летию со дня рождения В.П.Максаковского)./ Материалы международной научно-практической конференции 29-30 мая 2014 года. М.:Экон-информ, 2014.– 318 с.
19. Ташов Х.Р. Тесты по экономической и социальной географии мира.
20. Тошов Х.Р., Аллаёров И.Ш. Австралия Иттифоқи географияси. Ўқув қўлланма. Бухоро. “Бухоро нашриёти”, 2011 й, 60 б.
21. Х.Р.Ташов, А.М.Мавлянов, А.А.Кадыров, М.М.Кадырова. В.П. Максаковский и развитие географической науки в Узбекистане. Социально-экономическая география: теория, методология и практика преподавания (к 90-летию со дня рождения В.П.Максаковского)./ Материалы международной научно-практической конференции. Под. ред. А.А.Лобжанидзе.- Москва: Экон-информ, 2014.– с. 40-42.